

INGLIZLAR TOMONIDAN NYU YORKNI KALONIYAGA AYLANTIRISH JARAYONI

1- bosqich magistranti: Dushanova Feruza.

Ilmiy rahbar: dots. B.T.To'raqulov.

Nyu-York – AQSHning eng yirik shaharlaridan biri hisoblanadi. Aholisi 8 363 710 kishi (2010) [1]. Nyu-York shtatining janubiy-sharqiy hududlari Atlantika okeani qirg'og'iga borib taqaladi. XVII asr boshlarida bu hududda golland kolonistlari tomonidan yangi shaharga asos solindi. 1664-yilgacha bu shahar Yangi Amsterdam deb atalgan.

Bugungi kunda Nyu-York 5 ta geografik rayondan iborat: Bronks, Bruklin, Kuins, Manxetten va Staten-Aylend. Ular orasida diqqatga sazovor tarixiy joylar Manxettendan o'rin olgan.

Nyu-York dunyoning muhim moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirgi kunda Nyu-York joylashgan bu hududda yevropaliklar paydo bo'lmashidan ilgari Manaxattou va Kanarsi hindu qabilalari yashashgan.

Gudzon daryosi ko'rfazi hamda Konnektikut va Delaver daryolari oralig'idagi hududlarda 1613-yilda gollandlar savdo markazlarini tashkil eta boshladilar. Shunga asoslanib, Birlashgan Niderlandiya Provinsiyalari ushbu hududlarga egalik qilish davosi bilan chiqib, unga Yangi Niderlandiya deb nom berdilar. 1616-yilda ushbu kaloniyada boshqaruv huquqini gollandlarning Yangi Niderlandiya Qo'shma Kompaniyasi qo'lga kiritishdi.

1643-yilda Yangi Amsterdamda Villem Kift boshchiligidagi Amerika hindulariga qarshi kurash boshlandi. Kift urushi 1645-yil 29-yanvarda kalonizatorlarning g'alabasi bilan yakunlandi. Bu yerdagi kolonistlar faqat o'z foydasini o'ylovchi savdo kompaniyalari boshqaruvidan norozi edilar. 1649-yilda kolonistlar Niderlandiya General Shtatlariga petitsiya bilan murojaat qilib, unda o'z vatanlarida mavjud bo'lgan fuqarolik boshqaruvi tartiblarini o'rnatishni talab qildilar. Savdo kompaniyalari boshqaruvini cheklashga urinayotgan kolonistlarga Vest-Indiya kompaniyasi qarshi chiqadi. Kompaniya talabi bilan ushbu petitsiya inobatga olinmaydi. Kaloniyaning golland, ingliz va shvedlardan iborat oq tanli aholisining mustabid rejimga asoslangan kompaniyalar siyosatiga qarshi kurashi yanada kuchaydi. Mavjud vaziyatdan ingliz qirolining akasi gersog Yakov Yorkskiy o'z manfaati yo'lida foydalandi [2. c.181]. Qirollik xartiyasi taqdim etilmasidan oldin, koloniya aholisi murojatini sabab qilib, Yakov harbiy eskadrasini qurollantiradi. 1664-yilning 12-martida askarlarga quruqlik va dengiz orqali hujum qilishga buyruq beradi [3. c.148].

Ingliz eskadrasining qo'qqisidan qilgan hujumi tufayli Yangi Niderlandiyaning asosiy shahri hisoblanmish Yangi Amsterdam 1664-yilda egallanadi va uning nomi o'zgartirilib, Nyu-York deb ataladigan bo'ldi [4. c.59].

Keyingi yillar davomida butun Yangi Niderlandiya hududida gersog Yorkskiy hukmronligi o'rnatiladi. Oldin, gollandlarning Vest-Indiya savdo kompaniyasiga tegishli bo'lgan koloniya, endilikda feodal xususiy mulk boshqaruviga aylanadi. Bu

1667-yildagi Brededa Angliya va Gollandiya o'rtasida imzolangan tinchlik bitimida tan olinadi.

Biroq, 1673-yilda Gollandiya shaharni qaytarib oladi va uni Yangi Oranj deb ataydi (ingliz. *New Orange*) [5]. 1674-yil fevralda Vestministr sulhi tuzilguncha o'z qo'lida ushlab turadi. Vestministr tinchlik sulhiga ko'ra Nyu-York butunlay ingliz kaloniyasiga aylanadi. 1674-yilda gersog Yorkskiy ikkinchi bor bu kaloniyaning feodal xususiy mulk egasi ekanligini tasdiqlovchi qirollik xartiyasini qo'lga kiritadi. Kaloniyani uning tomonidan tayinlangan mansabdorlar boshqaradigan bo'ldi, biroq, oliy boshqaruvni Angliyada joylashgan Kengash yordamida gersogning o'zi boshqarar edi. Yakovning yaqin maslahatchilari mashxur huquqshunos Jeffriz va Yakovning sevimli kishisi - Cherchil bo'ldilar. Kaloniyada mulk egasining ishonchli vakili gubernator edi. 1665-yilda kaloniyada "Gersog qonunlari" (Duke's Laws) deb ataluvchi qonunlar to'plami joriy qilinadi [2. c.182].

Gersog va uning hamtavoqlari asosiy maqsadi kelayotgan foydaning maksimal qiymatini oshirish edi. Buning uchun eksport va import bojlari joriy qilinadi, shuningdek yer egalaridan renta to'lashni talab qiladi.. Daromadni ko'paytirish uchun birinchi navbatda kaloniyaga ko'chib keluvchilar sonini ko'paytirish darkor edi. Biroq, gollandiyaliklar hukmronligi davrida ko'chib kelganlar va kalonistlar Angliya tomonidan joriy etilgan soliqlar, boj va rentalarni to'lash siyosatidan norozi edilar. O'z navbatida bunga feodal majburiyatlarni tan olmayotgan qo'shni Yangi Angliya ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Kalonistlar va gersog Yorkskiy tarafdorlari o'rtasidagi qiziqishlar qarama-qarshiligi oxir-oqibat ular orasida ziddiyat keltirib chiqardi. Gersog va gubernator zarurat tufayli kaloniyadagi yuqori lavozimlarga mahalliy aholi vakillaridan tayinlashga majbur bo'ladi; sudya va advokatlar ancha badavlat kolonistlar orasidan tanlab olinadi. Shunday sharoitda, mahalliy ma'muriyat va sud boshqarmasi amalda kalonistlarning mulkdor qatlami qo'liga o'tadi. Bu ularga vakillik organi tarkibida xizmat qilishmasada, xususiy mulk egasi lord siyosatiga va moliyaviy urinishlariga qarshi chiqish imkoniyatini berar edi. Ayniqsa, kalonistlarning chuqur g'azab va kuchli qarshiligi kaloniyada 1674-1683-yillarda foydani yig'ib olgan gersog agenti V. Dayer ishiga qaratilgan edi. Nyu-York sudi advokati Dayerni lord xohishlarini haddan ortig'i bilan ijro etganlikda, qonuniy bo'lmagan bojlar joriy etganlikda va gersog Yorkskiy foydasi uchun qonunni buzganlikda ayblaydi. Dayerni o'lim jazosidan, faqatgina uning ishini Angliyaga ko'chirish orqaligina saqlab qolishdi. Bu yerda u oqlanib chiqdi va yana kaloniyaga general inspektor etib tayinlanadi.

Kalonistlar qarshiligi tufayli gersogning moliyaviy siyosati kutilgan daromadni bermadi. Uning vakillari tomonidan renta olish va boshqa ishlar uchun qilingan harakatlar natijasiz bo'lib, inqirozga uchradi va faqatgina shahar aholisi bilan yangi ziddiyatlar keltirib chiqardi. Biroq kalonistlar gersog Yorkskiyning moliyaviy siyosatiga passiv qarshiliklar bilan cheklanib qolishmaydi, ular boshqa kaloniyalar namunasida vakillik organi – General assambleya tuzishni talab qilishdi. Mahalliy aholi bosimi ostida qolgan gubernatorlar bu masala yuzasidan zudlik bilan gersogga murojaat qilishga majbur bo'lishdi. 1676-yil yanvarda gersogning gubernatorga yuborgan javobi diqqatni tortadi: "Men avval ham bu yerlarda Assambleya tuzish masalasi bo'yicha o'z fikrimni yozgan edim va bu masala yuzasidan yozgan keyingi

xatlaringizni e'tiborga oldim. Biroq siz bu assambleyaning tuzilish taklifini keltirgan bo'lsangizda, men hanuz uning oqibatlari xavfli burilishlarga olib kelishi mumkinligini o'ylamasdan turolmayman. Bu organni joriy etish buzg'unchiliklarga olib keladi, va biz o'z boshqaruvimizni hotirjam davom ettira olmaymiz. Men shuningdek, siz tomoningizdan ularning talablariga chek qo'yuvchi hech qanday hatti harakat va qonunda ko'rsatilgan asosda boshqaruvingizni ko'rmayabman..."[2. c.183].

Lekin oxir-oqibatda gersog chekinishga majbur bo'ladi. 1682-yilda u gubernator Dongenga soliqlar yig'ib olishni tasdiqlovchi Assambleya tashkil etishni buyuradi. 1683-yil oktyabrda Assambleya Nyu-Yorkda ilk bor chaqiriladi. Saylovlarga faqat frigolderlar va yirik yer egasi merosxo'rlarigina qo'yilgan. Nyu-York kaloniyasidagi bu birinchi Assambleyaning protokollari saqlanib qolinmagan. Faqat shular ma'lumki, uning tarkibi gubernator Dongen, qonunchilik Kengashining beshta a'zosi va okruglardan 17 ta deputat ishtirok etgan, ularning ko'pchiligi gollandlar bo'lgan. Birinchi sessiya uch hafta davom etgan va "Erkinliklar va imtiyozlar xartiyasi" deb nomlangan hujjat hamda 14 ta qonunchilik akti qabul qilindi. Keyin yana ikki marotaba sessiya chaqirildi, biroq 1687-yil yanvarda Assambleya tarqatilishi e'lon qilindi va ancha vaqtgacha chaqirilmadi. Mavjudligi chog'ida Assambleya 50 ta qonunchilik akti qabul qilib, gersog Yakov tomonidan tasdiqlangan va "Gersog qonuni" ga qo'shimcha sifatida ifodalangan. 1685-yilda Angliya taxtiga Yakov II o'tirgach, Nyu-York amalda qirollik kaloniyasiga aylanadi, biroq 1674-yilgi xartiya o'z kuchida qolib, kaloniya ilgarigidek huquqiy jihatdan Yakov II ning feodal mulkiligicha qolgan [4. c.60].

Dongen gubernatorligi davrida (1681-1688-yillar) ingliz aristokratiyasi bilan bog'liq feodal elementlarni kuchaytirishga harakat qilindi. Kaloniyada feodal ko'rinishdagi yirik yer egalarining kuchli guruhi tashkil topdi.

Vakillik organining bekor qilinishi va kaloniyada hokimiyat to'la xususiy mulk egasi lord qo'liga o'tishi, eng yaxshi yerlarning lordlarga bo'lib berilishi – bularning barchasi kalonistlarning noroziligini keltirib chiqardi. Ayniqsa bu holatda diniy kurash juda chuqurlashib ketdi. Nyu-Yorkdagi gollandiyalik va ingliz aholisining ko'pchilik qismi protestant bo'lib, ular papadan nafratlanishar edi. Kaloniya egasi bo'lgan Yakov esa maxfiy tarzda katolik bo'lgan. Kaloniyadagi yuqori lavozim egalari, gubernator Dongendan boshlab, deyarli barchasi katolik dini vakillari edi. Angliyadagi 1688-1689-yillardagi davlat to'ntarishi va Yakov II ning katolik Fransiyaga qochib ketishi natijasida taxtga protestantizm tarafdori Vilgelm III o'tiradi va Nyu-York kaloniyasida qo'zg'alon ko'tariladi. Bostondagi (Massachusetts) qo'zg'alondan olti hafta o'tgach, 1689-yil 31-mayda kapitan Yakov Leysler boshchiligidagi zobitlar qo'zg'alon ko'tarishadi va Nyu-York fortini egallab, Yakov II hokimiyatini ag'darib tashlashadi. Yakov Leysler asli kelib chiqishi Germaniyalik bo'lib, kaloniyaga 1660-yilda kelgan edi. U Nyu-Yorkning boy savdogar qatlami orasida ko'zga ko'rinarli o'rin egallagan. 1684-yilda zobit kapitani lavozimiga tayinlanadi.

Qo'zg'alonchilar g'alabasi shu qadar muqarrar ediki, ag'darilgan hokimiyat egalari ular bilan ochiq jang qilishga botina olishmadi. Nyu-York kaloniyasi va uning

tarkibiga kiritilgan Yangi Angliya dominioni general – gubernatori 1689-yil 11-iyunda qo‘zg‘alonchilardan shikoyat qilish uchun Angliyaga yo‘l oldi [2. c.185].

Kaloniya tuzilgan yangi inqilobiy hukumat tangri va qirol Vilgelmga xizmat qiladi, protestanlik diniy haqiqatini himoya qiladi deb Leysler e‘lon qildi. U katolik qirol Yakovning ko‘magi yordamida kaloniyani boshqarayotgan amaldorlarni haydab, aholining diniy erkinligini qayta tikladi. Yangi Angliyadagi qo‘shni puritan kaloniyalari Massachusets va Konnektikut Leysler boshchiligidagi harakatlarga o‘zlarining ijobiy munosabatlarini bildirishadi va qo‘llab-quvvatlashga va‘da beradi.

Leysler Nyu-York uchun delegatlar saylashga taklif qilingan kaloniya vakillarini tarqatib yuboradi. Yangi hokimiyat uchun to‘qqizta hududdan 13 ta deputat saylandi. Ular hokimiyat organi sifatida 27-iyundan 15-avgustgacha moliyaviy hamda boshqaruv tizimi masalalari bo‘yicha yig‘ilish olib bordi. 10 kishidan iborat Xavfsizlik Qo‘mitasi (Committee of Safety) tuzildi, Leysler kaloniyadagi qurolli kuchlar boshlig‘i etib tayinlanib, yuqori sud va ma‘muriy hokimiyatni boshqarish unga beriladi. Qo‘mita Leysler kengashi sifatida harakat qiladi. Yangi inqilobiy hukumat nafaqat Yakov tarafdorlari – “yakobitlarni”, balki ancha radikal bo‘lgan respublikachi elementlarni, Oliver Kromveldan so‘ng Angliyada “qonuniy qirol” bo‘lmagan deb e‘lon qilgan “oliveristlarni” ham siqib chiqaradi.

1689-yil iyul oyi oxirida ingliz Maxfiy kengashi Nyu-Yorkda Vilgelm III ning qirolligini e‘lon qilish haqida buyruq chiqaradi va kaloniyaga xabar yuboriladi.

Xabar olingandan to 1691-yil martigacha Leysler o‘zini kaloniyadagi hokimiyatning qonuniy egasi sifatida hisoblar edi. 1689-yilning 11-dekabridan boshlab u Kengash joriy qiladi va o‘zining 13 oylik hukmronligi mobaynida kaloniyada yengilliklar joriy qiladi, sud tashkil etadi, hokimiyat vazifasini amalga oshiradi. Leyslarning yaqin yordamchilari va tarafdorlari orasida yirik yer egalari ham mavjud bo‘lib, ulardan biri Idsoll 1,5 ming akr yerga egalik qilgan.

O‘z ahamiyatiga ko‘ra Nyu-Yorkdan keyingi o‘rinda turuvchi shahar – Olban uzoq qarshiliklardan so‘ng inqilobiy hukumatga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi. Koloniyada bosh boshqaruvchi sifatida tan olingan Leysler bu bilan cheklanib qolmay Fransiya hukmronligidagi Kanadani egallashga harakat qildi. Lekin, Kvebekka qilingan hujum butunlay mag‘lubiyatga uchraydi. Fransuzlarga qarshi urushda Leysler Amerikadagi ingliz koloniyalarini birlashtirishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Yangi Angliya, Merilend, Virjiniya, Pensilvaniya, Nyu-Jersi va hatto Vest Indiyaga elchilar yuboradi. 1690-yil aprelida Leysler birgalikda harbiy harakatlar olib borish va doimiy aloqalar o‘rnatish loyihalarini muhokama qilish uchun ingliz koloniyalari gubernatorlarini Nyu-Yorkka chaqiradi. Bu taklifni faqatgina Yangi Angliya birlashmalari – Massachusets, Konnektikut va Plimut koloniyalari qabul qiladi, qolgan koloniyalar esa javobsiz qoldiradi. Yangi Angliya birlashmasi komissarlari Olban shahrini bo‘ysundirishda harbiy yordam ko‘rsatishga va‘da berishadi, lekin amalda faqatgina Konnektikut otryadlari yuboriladi xolos [2. c.187].

Shunday sharoitda, Amerikada ingliz koloniyalarini birlashtirish harakati omadsizlikka uchraydi. Nyu-York koloniyasining o‘zida esa Leysler hokimiyatiga qarshi norozilik chiqishlari amalga oshiriladi. Boy aholining Leysler boshqaruvidan norozi bo‘lish sabablaridan biri, u tomonidan ortiqcha mahsulotlarni ehtiyoji bor

garnizonlarga yuborish haqidagi buyrug'i edi. 1691-yil 20-yanvarda Angliyadan mayor Ingoldsbi boshchiligidagi qirolik polk askarlari yetib keladi. U Leyslerdan Nyu-York fortini topshirishni va bo'ysunishni talab qiladi. Leysler rad javob qaytaradi. Shunda Ingoldsbi Long-Aylenddagi mahalliy otryadlarni yig'ib Leysler jangchilariga qarshi ochiq harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Otishma chog'ida qirolik askarlaridan ikki kishi o'ldiriladi va yetti kishi yaralanadi. Har ikki taraf bir-birini noqonuniy hatti-harakatlarda ayblashadi. 1691-yil 19-martda Angliyadan gubernator Slafterning kelishi fuqarolar urushi boshlanib ketishining oldini oladi. Slafter o'z vakolatlarini e'lon qiladi va Ingoldsbi orqali Leyslerdan zudlik bilan fortini qaytarishni talab qildi. Keyingi kun Leysler taslim bo'ladi. Leysler Milborn va sakkizta yaqin safdoshlari bilan qamoqqa olinadi va davlatga xiyonat qilganlikda ayblanib sudga topshiriladi. Kolonial sud Leysler, Milborn va qo'zg'alonning boshqa olti ishtirokchisini o'lim jazosiga tortadi, ikki kishi esa oqlanadi. Gubernator Slafter bu hukmni tasdiqlaydi va Leysler hamda Milbornlar 1691-yil 16-mayda o'ldiriladi. O'ldirilganlarning o'g'illari 1695-yilda parlamentdan Leysler va Milbornning davlatga xiyonat qilganligi aybidan oqlanishiga erishishadi, ularning mol-mulki merosxo'rlariga qaytarilib beriladi.

Qirol tomonidan gubernator Slafterga berilgan vakolatlar quyidagi punktlarni o'z ichiga olar edi: "Biz koloniyadagi butun hokimiyatni sizga topshiramiz va Kengash yordami hamda roziligi asosida vaqti-vaqti bilan zarurat tug'ilganda frigolderlar hisoblangan mahalliy aholidan General Assambleya chaqirishga ruxsat beramiz" [2. c.188].

Shunga asoslanib 1691-yil 9-aprelda koloniyada Assambleya chaqiriladi. Shu bilan Nyu-Yorkni feodal xususiy mulk sifatida va absolyut boshqaruv huquqi davri yakunlanadi. Nyu-York gubernator, Kengash hamda yer egalari-frigolderlar – Assambleyasi boshqaruvi ostidagi qirolik koloniyasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://quickfacts.census.gov/qfd/states/36/3651000.html> (англ.)
2. Самойло А.С. «Английские колонии в Северной Америке в XVII веке» М., 1963.
3. Вашингтон Ирвинг. История Нью-Йорка Перевод В. И. Ровинского Серия "Литературные памятники", М., "Наука", 1968.
4. «История США» том первый (1607-1877) Отв. ред. Н. Н. Болховитинов. М. 1983.
5. История Нью-Йорка. Материал из Википедии.

SamDU tarix fakulteti "Umumiy tarix" kafedrasi professor-o'qituvchilari, magistrant va iqtidorli talabalarning 2013-yildagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand 2014. 73-79.